



TIBBIY SUG'URTANING RIVOJLANISH EVOLYUSIYASI

Ravshanov Azamat Azimjonovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Nomozova Qumri Isoyevna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori v.b.

Respublikamiz sug'urta qonunchiligiga ko'ra, sug'urta xizmati ko'rsatish faoliyati yozma ravishdagi bitim asosida, ya'ni sug'urta shartnomasi tuzish orqali amalga oshiriladi. Biroq sug'urta shartnomasi sug'urta xizmati ko'rsatish faoliyatida ishtirok etuvchi subektlarning huquq va majburiyatlarini ifodalovchi asosiy hujjat bo'lib hisoblanishiga qaramay, sug'urta xizmati faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonun xujjatlarida bu shartnomaga ta'rif berilmagan. Zero, "sug'urta" atamasini faqat shartnoma bilan bog'lash maqsadga muvofiq emas. Sug'urta bu faoliyatdir. Lekin sug'urta tushunchasi adabiyotlarda turlicha – xavf-xatarni kamaytirish va chegaralash usuli (Serebrevskiy V.I., 1999), iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi (Ro'ziyev R., 1991), xo'jalik faoliyati turi (Xodjayeva M., 2003), moliyaviy inqirozdan himoyalaniish vositasi (Fuqarolik huquqi., 2008), fuqarolik-huquqiy institut (Tadbirkorlik huquqi., 2002) sifatida talqin qilinadi.

"Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunga asosan sug'urta deganda, yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda, ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi.

Umuman olganda, sug'urta faoliyati turli sohalarida, jumladan, mehnat munosabatlarida ijtimoiy sug'urta, tadbirkorlik munosabatlarida mulkiy sug'urta, fuqaro huquq va burchlarining huquqiy muhofazasi bilan bog'liq munosabatlarda shaxsiy sug'urta sifatida keng qo'llanilmoqda.

Lekin fuqarolarning sog'lig'ini saqlash va ularni ijtimoiy himoyalash bilan bog'liq munosabatlarda qo'llaniladigan yana bir sug'urta turi mavjudki, bu tibbiy sug'urtadir. Tibbiy sug'urta mamlakatimiz uchun noan'anaviy bo'lgan sug'urta xizmatlaridan biridir. Hanuzgacha amaldagi qonunchilikda tibbiy sug'urta tushunchasi, uning qo'llanish sohasi haqida izoh va tushunchalar nazarda tutilmagan. Bundan tashqari, ushbu kunga qadar mazkur sug'urta turi respublikamizda deyarli qo'llanilmay kelinmoqda. Bu bilan respublikamizda tibbiy sug'urta munosabatlari vujudga kelmagan, degan xulosaga kelinmasligi lozim. Asosan tibbiy sug'urtaning ixtiyoriy turi xorijiy mamlakatlar fuqarolari va korxonalari tomonidan tuzilmoqda.

Tibbiy sug'urta munosabatlari va ularni huquqiy tartibga solish masalalari tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Lekin tibbiy sug'urtaning qachon vujudga kelganligi haqida fanda yakdil fikr mavjud emas. Ammo manbalarda tibbiy sug'urta yoki uning xususiyatlarini o'zida qamrab olgan ayrim huquqiy munosabatlar xususida fikrlarni uchratish mumkin. Masalan, qadimgi Xitoyda tibbiy sug'urtaga o'xshash tizim mavjud bo'lib, unga ko'ra, mijozlarning shifokorlarga, ular sog'lom bo'lgan vaqtlarida ham pul to'lab turish tartibi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



joriy etilgan. Bu mijozlar kasal bo'lganlarida esa shifokorlar, ulardan chegirma asosida haq olganlar. Qadimgi Gretsiyada esa jangchilar jamoatchilikning doimiy ijtimoiy himoyasi ostida bo'lganlar. Keyinchalik rimliklar bu amaliyotni o'zlashtirib, unga jangchining vafotidan keyin dafn xarajatlarini qoplash, shuningdek qarilik va mehnat layoqatini yo'qotganlik munosabati bilan haq to'lash tartibini joriy etganlar (<http://www.strahuemvseh.ru/index>).

Tibbiy sug'urtaning ilk ko'rinishlari shimoliy Amerikada shakllana boshlagan. Tibbiy sug'urta tushunchasi esa ("Health insurance") ilk bor 1694 yilda Heyg Chamberlen (AQSH) tomonidan ishlatilgan. XIX asrning oxirlarida hozirgi mehnat qobiliyatini yo'qotishdan sug'urtalanishga o'xshash bo'lgan "baxtsiz hodisa sug'urtasi" tushunchasi muomalaga kirib keldi (How Health Insurance Works. "Encarta: Health Insurance". Archived from the original on 2009-10-31.). Ushbu to'lov modeli tibbiy sug'urta ham mehnat qobiliyatini yo'qotishdan sug'urtalash uchun ishlab chiqilgan qonunlar bilan tartibga solinadigan hududlarda (masalan, AQShning Kaliforniya shtati qonunchiligida) XX asrning boshlariga qadar amalda bo'lgan (See California Insurance Code Section 106 (defining disability insurance).<http://caselaw.lp.findlaw.com/cacodes>).

1850 yilda Londonda tashkil etilgan "baxtsiz hodisadan vafot etganlar assotsiatsiyasi" tan jarohati olgan shaxslarning tibbiy xizmat xarajatlarini qoplashni taklif etgan birinchi kompaniya bo'ldi. Baxtsiz hodisa sug'urtasi esa ilk bor AQShda, Massachusetts shtatidagi Franklin sug'urta kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan. 1850 yilda tashkil etilgan ushbu firma temir yo'l va paroxod halokati natijasida yetkazilgan jarohatlarni sug'urtalashni taklif etgan. 1866 yilga qadar qo'shma shtatlarda bunday sug'urta turi bilan shug'ullanuvchi oltmish nafar firma tashkil topdi, lekin shundan keyin monopollashuv jarayoni tezlashib ketdi. XIX asrning 90yillarida tibbiy sug'urtalanuvchi kichik jamoalarni tashkil etish jarayoni boshlandi. 1911 yilga kelib, ish beruvchilar tomonidan tashkil etilgan jamoaviy sug'urta polislari ilk bor sotuvga chiqarildi (Fundamentals of Health Insurance: Part A, Health Insurance Association of America, 1997, ISBN 1-879143-36-4.). Bundan oldin Germaniyada hozirgi paytdagi kabi ilk universal tibbiy sug'urta tizimi shakllantirildi. Kansler Otto fon Bismarkning ijtimoiy islohotlari doirasida 1883 yilda "Kasallikdan majburiy sug'urtalash to'g'risida"gi ilk qonun qabul qilindi. Ushbu qonun ixtiyoriylik asosida tashkil etiladigan sug'urta fondlarida ishchilarning majburiy jalb etilishini nazarda tutadi. Keyinchalik "Baxtsiz hodisadan sug'urtalash to'g'risida"gi (1884 y.) va "Yosh va mehnat qobiliyatini yo'qotishdan sug'urtalash to'g'risida"gi (1889 y.) qonunlar qabul qilindi. Germaniyadan keyin bu kabi qonunlar birin-ketin boshqa Yevropa mamlakatlarida ham qabul qilindi. Sug'urta tizimining tadrijiy rivojlanishi shunga borib yetdiki, 1930 yilga kelib qit'aning barcha davlatlarida kasallikdan sug'urtalash tizimining u yoki bu shakli to'liq shakllanib bo'lgan edi (<http://www.info-insurance.ru/articles/medical>).

Tibbiy sug'urtaning ilk ko'rinishlaridan yana biri "shifoxona kassalari"dir. Bunday o'ziga xos jamg'armalar XVIII asrda paydo bo'lgan. Chunki shu davrga kelib, Yevropada



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



avj olgan sanoat inqiloblari natijasida asosiy qismi ijtimoiy jihatdan kam himoyalangan keng ishchilar sinfi shakllandi. Ish haqining pastligi, ularni qo'shimcha pul jamg'arish imkoniyatidan mahrum etar, bu esa kasalliklar yoki baxtsiz hodisalar sharoitida ishchilar sinfini ojiz ahvolda qoldirardi. Ushbu omillarning barchasi ishchilarning maoshlaridan ajratmalar hisobiga shakllantiriladigan "shifoxona kassalari"ning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bunday kassalar kasalliklar va homiladorlik sharoitida ishchilarga moddiy ta'minot berish orqali ko'maklashishni nazarda tutardi. Bu kassalar o'zini o'zi boshqarish tizimiga ega edi. Keyinchalik qabul qilingan qonun hujjatlari ish beruvchilar va ishchilarning sug'urta badallarini to'lashdagi ulushlarini belgilab berdi. Shuningdek, kassalar tomonidan shifoxona to'lovlarini, yosh va mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq holatlarda esa pensiya to'lash tartibi joriy etildi. Germaniyada bugungi kunda ham u keng tarqalgan.

Umuman, ijtimoiy sug'urta, uning eng oddiy ko'rinishlari – hayotni sug'urtalash va baxtsiz hodisadan sug'urtalash shaklida vujudga kelgan bo'lib, bu faoliyat bilan, asosan, xususiy sug'urta kompaniyalari shug'ullanganlar.

